

TARBIYA VA HUQUQNING O'ZARO ALOQADORLIGI JIHATLARI TASNIFI

Raupova Munira Murodovna

p.f.n., dosent

Jumanova Hafiza Xoliqulovna

tayanch doktorant(phd) Navoiy davlat pedagogika instituti. Pedagogika va psixologiya kafedrası

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muayyan asoslardan kelib chiqqan holda tarbiya va huquq tushunchalarining bir biri bilan o'zaro aloqadorligi to'g'risidagi fikrlar ilgari surilgan. Kalit so'zlar: tarbiya, tarbiya jarayoni, huquq, huquq sohasi, tarbiya va huquq o'rtasida dialektik aloqadorlik.*

Ma'lumki, tarbiya jarayoni ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Bu jarayonning yana bir xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Ta'lim muassasasida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu – o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiya jarayoni o'sib kelayotgan yosh avlodni aniq yo'naltirilgan muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, tarbiyalanuvchida ijtimoiy ong va xulq-atvorni dastlab shakllantirish, so'ng rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoni hisoblanadi.

Tarbiya jarayoniga uzluksizlik xos. Shuningdek, tarbiya tarbiyalovchidan alohida e'tibor, burch va mas'uliyatni talab etadi. Basharti tarbiyada mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yilgudek bo'lsa butunlay teskari natija kelib chiqishi mumkin. Bu xususda taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday yozgan edi: "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir". Ushbu fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy-milliy ahamiyatga olik bo'lgan ilmdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Mohiyatan olib qaraganda tarbiya va huquq o'rtasida dialektik aloqadorlik mavjud. Bu fikrimizni asoslash maqsadida yana Abdulla Avloniy merosiga murojaat qilamiz. Taniqli o'zbek pedagogi qayd etadiki, "Bolaning salomi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'stirmakdir". Demak tarbiya yoshligidan bolani go'zal xulqlarga o'rgatib borish, yoki aksincha, yomon xulq, noto'g'ri xatti-harakatlardan uni tiyilishga odatlantirib borish. Aytish mumkinki, bola xulqini jamiyatda belgilangan normalarga muvofiq lashtirib borish. O'zbek tilining izohli lug'atida qayd etilishicha, tarbiya (arabcha) rivojlantirish; parvarish qilish, o'stirish; o'rgatish; ilm berish ma'nosini

anglatadi: 1) ta'lim, axloq-odob va shu kabilarni o'rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg'aytirish, o'stirish; 2) insonda ishhunar, odob-axloq va shu kabilarni shakllantirish, rivojlantirish, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo'lgan xislatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish-amallar majmui va shu yo'l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o'zi. Endi huquq tushunchasining talqiniga e'tibor qarataylik.

Rossiyalik olim S.S. Alekseevning fikricha, huquq – qonunlarda yoki davlat tomonidan tan olinadigan boshqa manbalarda mustahkamlanadigan va huquqiy ruxsat etilgan hamda yuridik jihatdan ruxsat berilmagan, taqiqlangan xulq-atvorni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan huquq umummajburiy normalar tizimi. Akademik V.S. Nersesyansning e'tiroficha, "Huquq o'z mohiyatiga ko'ra real munosabatlarda tarixan obyektiv belgilangan erkinlikning muayyan shakli, mazkur erkinlikning me'yor, erkinlik mavjudligining namoyishi, shakllangan erkinlik", "rasman (shaklan) erkinlik prinsipi aynan huquqning o'zi bo'lib, u huquqqa xos adolatni aks ettiradi". S.S. Alekseev huquqni "normativ sistema" deb ta'riflaydi. Uning ta'kidlashicha, "huquqning jamiyat hayotidagi asosiy qadr-qimmati, ijtimoiy vazifasi va ahamiyati normativ sistema ekanligida". Demak bu ta'rifdan kelib chiqadigan bo'lsak, huquq davlat darajasida umumlashtirilgan irodaning normativ ifodasidir. Mamlakatimiz huquq sohasining yetakchi olimlaridan biri X.T.Odilqoriyevning nuqtai nazaricha, huquq "ijtimoiy munosabatlarni jamiyat va inson manfaatlaridan kelib chiqib tartibga solish vositasi"dir. Huquq – jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, fuqarolarning yurishturishi, xulq-atvori, asosiy hayotiy faoliyatini belgilab beruvchi, davlat tomonidan rasmiylashtirilgan yashash qoidalari tizimidir[6]. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov huquq tushunchasini "ijtimoiy hamjihatlik va kelishuvga asoslangan ijtimoiy tartib-intizomga erishish, erkinlik, adolatparvarlik va tenglikni vujudga keltirish vositasi" deb ta'rif beradi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, hammaning qonun oldida tengligi (19-modda), har kimning yashash huquqi (25-modda), erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi (27-modda), mehnat qilish, dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, ta'lim olish kabi huquqlari mustahkamlab qo'yilgan. Huquq davlat tomonidan o'rnatiladigan va qo'riqlanadigan, mamlakat aholisining umumiy va shaxsiy manfaatlarini ifodalovchi va ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish vositasi sifatida amal qiluvchi umummajburiy xulq-atvor qoidalari tizimidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, tarbiya ham, huquq ham bir-birini taqozo etuvchi, inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etuvchi, shaxsni ma'naviy barkamollikka yetaklovchi omillardir. Ularning birini ikkinchisiz taqozo etib bo'lmaydi. Shunday ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-

son Farmoni asosida kuchga kirgan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi"da belgilab qo'yilganidek, bugungi kunda "jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish", "ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikni oshirish"ga oid keng qamrovli tadqiqotlar olib borish va bu jarayonda tarbiya omillaridank keng foydalanish oldimizda turgan dolzarbv zifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023 yil.
2. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi./ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019 y., 06/19/5618/2452-son.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996 yil. –20-b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -678-b.
5. Avloniy, Abdulla. Tanlangan asarlar:2-jildlik/To'plovchi, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi B. Qosimov. Jild 2. Pandlar, hikoyatlar, nabiylar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. – Toshkent:Ma'naviyat, 2009 yil. – 37-38-b.
6. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – T.:Adolat, 2018 yil ,166-b.
7. Нерсесянц В.С. Право и закон. – М., 1983, ст.342–343.
8. Алексеев С.С. Право: азбука – теория – философия: Опыт комплексного исследования. – М.: 1999, ст.58.
9. Алексеев С.С. Восхождение к праву: поиски и решения. – М.: Норма, 2001,ст.54